



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI.....	14
Shermatov Sherzod Xotamovich RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI	20
Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjayev Anvar Rasulovich TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI	26
Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI.....	33
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O’ZBEKISTON SHAROITIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI	38
Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	43
Буранова Лола Вахобовна ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ	54
Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI.....	60
Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA	64
Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI	
Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI	73
Abdullo Sohobov O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI	84
Mamanazarov Oybek Shomurodovich KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	91
Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	95
Dadajonova Madina Ravshan qizi O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI	100
Ochilov Farhod Malikovich O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA).....	106
Hayitov Jamshid Xolboyevich	



INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	111
Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI.....	118
Olokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR.....	122
Karimova Iroda Abdusattarovna KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	128
Qurbonov Abror Abdullayevich GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY.....	133
Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI.....	142
Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	148
Джураева Гузаль Шавкатовна BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH.....	156
Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOHOVCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Marqayev Xurshid Aliqulovich THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS.....	165
Zafar Qodirov Abdivaxobovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	170
Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich Shukurova Nilufar Qahramonova IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY.....	175
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	179
Aliyev Arslon Salom o'g'li A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS.....	184
Wang Biao USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH.....	190
Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna INTEGRATSIIYA SAMARADORLIGINI O'LGHASHNING METODOLOGIK MODELI VA INDIKATORLAR TIZIMI.....	195
Aliqulov Abbas Baxtiyor o'g'li XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA XIZMATLAR SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	202
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	



MOLIYAVIY HISOBOTLAR AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	207
Elomonov Dadaxon Ozodullayevich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA IQTISODIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	213
L.S. Azimova	
THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IFRS AND FINANCIAL REPORTING	218
Tojiboyev Abdullajon Kamoliddin o'g'li	
PAXTA-TO'QIMACHILIK SANOATIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNING HUQUQIY ASOSLARI	223
Abdullayev Hamidulla Abdug'ani o'g'li	
TURIZM KORXONALARIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI KUCHAYTIRISHNING ZAMONAVIY BOSHQARUV MEXANIZMLARI	227
Ergasheva Zarifa Baxtiyarovna	
CHO'L-YAYLOV CHORVACHILIGI MAJMUASI RIVOJLANTIRISH	232
Nurmanov Sherzod Xujayarovich	
KREDITORLAR REYTINGINI MASHINAVIY O'QITISHGA ASOSLANGAN BASHORATLASH ALGORITMLARI	237
Beknazarov Ulug'bek Zafar o'g'li	
MIKROIQTISODIYOTDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORI VA TALAB SHAKLLANISHI OMILLARI	242
Raximov Azizbek Saliyevich	
OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJIY TAJRIBASI: AQSH MISOLIDA.....	246
Kurbanov Baxodir Negmatullayevich	
O'ZBEKISTON TURIZM INDUSTRIYASINI BOSHQARISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNI JORIY ETISH USULLARI	250
Ashurova Shaxnoza Almasovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI.....	257
Sharipova Shahlo Istamovna	



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Sharipova Shahlo Istamovna

Renessans universiteti

Matematika va tabiiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

E-mail: sh_sharipova@renessans-edu.uz

ORCID: 0009-0001-0550-7447

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida ommaviy axborot vositalari korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga doir nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Unda media korxonalarining daromad manbalari, raqamli biznes modellari, monetizatsiya mexanizmlari, moliyaviy risklar, likvidlik, rentabellik va pul oqimlari barqarorligi kabi tushunchalar ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan. Shuningdek, raqamli platformalar, reklama bozori, obuna modeli, ma'lumotlar asosida boshqaruv va kontent diversifikatsiyasi OAV korxonalarining moliyaviy mustahkamligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida OAV korxonalarini uchun moliyaviy barqarorlikni baholashning nazariy-mezonli yondashuvi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, ommaviy axborot vositalari, media korxonalarini, moliyaviy barqarorlik, monetizatsiya, raqamli platforma, pul oqimi, biznes model.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические подходы к обеспечению финансовой устойчивости предприятий средств массовой информации в условиях цифровой экономики. Рассматриваются источники доходов медиакомпаний, цифровые бизнес-модели, механизмы монетизации, финансовые риски, ликвидность, рентабельность и устойчивость денежных потоков с научной точки зрения. Также цифровые платформы, рекламный рынок, модель подписки, управление на основе данных и диверсификация контента рассматриваются как основные факторы, влияющие на финансовую устойчивость медиапредприятий. В результате исследования предложен теоретико-критериальный подход к оценке финансовой устойчивости медиакомпаний.

Ключевые слова: цифровая экономика, средства массовой информации, медиакомпании, финансовая устойчивость, монетизация, цифровая платформа, денежный поток, бизнес-модель.

Annotation. This article analyzes theoretical approaches to ensuring the financial stability of mass media enterprises in the context of the digital economy. It examines media companies' revenue sources, digital business models, monetization mechanisms, financial risks, liquidity, profitability, and cash flow stability from a scientific perspective. Digital platforms, the advertising market, subscription models, data-driven management, and content diversification are also considered as key factors influencing the financial stability of media organizations. As a result of the study, a theoretical-criteria-based approach for assessing the financial stability of media enterprises is proposed.

Keywords: digital economy, mass media, media companies, financial stability, monetization, digital platform, cash flow, business model.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ommaviy axborot vositalari korxonalarini faoliyatida tub tarkibiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Axborotni yaratish, tahrirlash, tarqatish va monetizatsiya qilish jarayonlari endilikda raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, striming xizmatlari va ma'lumotlar tahlili bilan bevosita bog'lanmoqda. Shu sababli OAV korxonalarini faqat axborot yetkazuvchi ijtimoiy institut emas, balki raqamli qiymat yaratuvchi, auditoriya e'tibori va ishonchini iqtisodiy resursga aylantiruvchi korporativ tuzilma sifatida ham namoyon bo'lmoqda.



Moliyaviy barqarorlik media korxonasi uchun doimiy faoliyatni davom ettirish, tahririyat mustaqilligini saqlash, texnologik yangilanishlarga moslashish va raqobatbardosh kontent ishlab chiqarishning iqtisodiy asosi hisoblanadi. Agar OAV korxonasi daromad manbalarini diversifikatsiya qila olmasa, reklama bozoridagi tebranishlar, platformalarga qaramlik, auditoriya e'tiboring bo'linishi va ishlab chiqarish xarajatlarining ortishi uning moliyaviy mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, raqamli muhit OAV korxonalariga katta imkoniyatlar bilan birga yangi moliyaviy risklarni ham olib kelmoqda. Bir tomondan, raqamli texnologiyalar kontentni tez va keng auditoriyaga yetkazish, reklama samaradorligini oshirish, auditoriyani segmentlash va yangi pullik xizmatlarni shakllantirish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, bu jarayon raqobatni kuchaytiradi, doimiy texnologik investitsiyalarni talab qiladi va an'anaviy daromad modellari barqarorligini pasaytiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashning nazariy asoslarini yoritish, unga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish hamda media korxonalarining barqaror moliyaviy rivojlanishi uchun ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Media iqtisodiyoti nazariyasida OAV korxonalarini odatiy ishlab chiqarish subyektlaridan farqli ravishda ikki tomonlama bozor ishtirokchisi sifatida izohlanadi. Robert G. Picard media korxonalarining iqtisodiy tabiatini auditoriya va reklama beruvchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liq munosabatlar orqali tushuntiradi: auditoriya kontentni iste'mol qiladi, reklama beruvchilar esa aynan shu auditoriyaga yetib borish uchun media maydonidan foydalanadi. Demak, media korxonasining moliyaviy barqarorligi nafaqat xarajat va daromad nisbatiga, balki auditoriya ishonchi, kontent sifati va reklama bozoridagi mavqeiga ham bog'liq.

Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi axborot, ma'lumotlar va tarmoq texnologiyalarini iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida ko'radi. Don Tapscott raqamli iqtisodiyotni tarmoq aloqalari, bilimlar almashinuvi va innovatsion faoliyatga asoslangan yangi iqtisodiy muhit sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv OAV korxonalariga ham bevosita tegishlidir, chunki zamonaviy media faoliyatining asosiy resursi axborot, auditoriya ma'lumotlari va raqamli tarqatish kanallaridir.

OECD tadqiqotlarida raqamli transformatsiya korxonalarining ishlab chiqarish, boshqaruv va bozor bilan munosabatlarini qayta tashkil etuvchi jarayon sifatida tavsiflanadi. OAV korxonalarini uchun bu transformatsiya kontent ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilash, ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish, platformalar bilan ishlash va raqamli monetizatsiya kanallarini rivojlantirish zaruratini anglatadi.

Moliyaviy barqarorlik nazariyasi korxonaning qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarini bajarish qobiliyati, rentabellikni saqlashi, kapital tuzilmasini oqilona boshqarishi va pul oqimlarini izchil shakllantira olishi bilan bog'liq. A. Damodaran korporativ moliyada korxonaga qiymati va barqarorligi ko'p jihatdan operatsion pul oqimlari, qarz yuklamasi va investitsion qarorlar sifatiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Media korxonalarida bu masala reklama tushumlari, obuna daromadlari, texnologik xarajatlardan va kontent ishlab chiqarish tannarxi orqali namoyon bo'ladi.

Reuters Institute va PwC tadqiqotlari raqamli media bozorida auditoriya xulq-atvori, platformalar ta'siri va obuna modellari toбора muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi. Bu esa OAV korxonalarini uchun moliyaviy barqarorlikni faqat reklama daromadlari bilan emas, balki ko'p manbali monetizatsiya tizimi orqali ta'minlash zarurligini asoslaydi.

O'zbekiston sharoitida "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, elektron xizmatlarni rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga qaratilgan muhim institutsional asos hisoblanadi. Mazkur strategik yo'nalish OAV korxonalarining raqamli infratuzilmasini rivojlantirish, media xizmatlarini modernizatsiya qilish va moliyaviy boshqaruvda raqamli yechimlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, nazariy umumlashtirish, qiyosiy tahlil va mantiqiy yondashuv usullaridan foydalanildi. OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligi raqamli iqtisodiyot, media iqtisodiyoti va korporativ moliya nazariyalari kesishmasida o'rganildi.

Maqolada moliyaviy barqarorlik tushunchasi media korxonasining likvidlik, rentabellik, pul oqimlari, daromadlar diversifikatsiyasi, texnologik moslashuvchanlik va bozor risklariga bardoshlilik darajasi bilan bog'liq kompleks iqtisodiy kategoriya sifatida talqin qilindi. Tahlil jarayonida OAV korxonalarining an'anaviy va raqamli biznes modellari qiyoslandi hamda raqamli muhitda barqaror moliyaviy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar guvuhlashtirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligi an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda raqamli faoliyat samaradorligini ifodalovchi omillar orqali ham baholanadi. Masalan, auditoriya qamrovi, foydalanuvchi faolligi, kontentga qaytish darajasi, obuna konversiyasi, raqamli reklama samaradorligi va platformalar bo'yicha daromad taqsimoti moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

An'anaviy OAV modelida asosiy moliyaviy tayanch reklama tushumlari, bosma nashrlar savdosi yoki efir vaqti bilan bog'liq bo'lgan. Raqamli modelda esa daromad manbalari kengayadi: banner va target reklama, obuna, pullik kontent, homiylik materiallari, video monetizatsiya, podkastlar, ma'lumotlar tahlili, elektron tijorat bilan integratsiya va maxsus media loyihalar shular jumlasidandir. Bunday diversifikatsiya moliyaviy barqarorlikni kuchaytiradi, chunki korxonalar bitta daromad kanaliga qaram bo'lib qolmaydi.

OAV korxonalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun, avvalo, daromadlar tarkibini tahlil qilish muhim. Agar media korxonasi daromadining katta qismi faqat bir reklama beruvchi, bir platforma yoki bir turdagi kontentga bog'langan bo'lsa, bu holat moliyaviy riskni oshiradi. Aksincha, reklama, obuna, maxsus loyihalar va xizmatlar o'rtasida muvozanat mavjud bo'lsa, korxonaning bozor tebranishlariga moslashuvchanligi ortadi.

Ikkinchi muhim jihat — xarajatlar tuzilmasidir. Raqamli OAVda texnik infratuzilma, dasturiy ta'minot, kiberxavfsizlik, multimedia jihozlari, jurnalist va texnik xodimlarning malakasini oshirish bilan bog'liq xarajatlar muhim o'rin tutadi. Bunday xarajatlar qisqa muddatda moliyaviy yuk bo'lib ko'rinsa-da, uzoq muddatda kontent sifati, auditoriya qamrovi va daromadlarni oshirishga xizmat qiluvchi investitsiya sifatida baholanishi lozim.

Uchinchi jihat — pul oqimlari barqarorligidir. Media korxonalarida ko'pincha mavsumiy reklama tushumlari, siyosiy-iqtisodiy holat, auditoriya faolligi yoki platforma algoritmlaridagi o'zgarishlarga bog'liq bo'ladi. Shu sababli operatsion pul oqimlarini muntazam rejalashtirish, xarajatlarni muddatlar bo'yicha muvofiqlashtirish va likvid zaxiralarni shakllantirish moliyaviy barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi.

1-jadval.

OAV korxonalarida moliyaviy barqarorlikni baholashning asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar guruhi	Mazmuni	Raqamli iqtisodiyotdagi ifodasi	Moliyaviy ahamiyati
Likvidlik	Qisqa muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyati	Reklama va obuna tushumlarining tezkor aylanishi	To'lov intizomini ta'minlaydi
Rentabellik	Foyda olish darajasi	Raqamli kontent va reklama samaradorligi	Kapital qaytimini oshiradi
Pul oqimi	Kirim va chiqimlar muvozanati	Platformalar bo'yicha monetizatsiya tushumlari	Operatsion uzluksizlikni saqlaydi
Diversifikatsiya	Daromad manbalarining ko'pligi	Obuna, reklama, video, maxsus loyiha	Risklarni kamaytiradi
Moliyaviy mustaqillik	Qarz va o'z mablag'i nisbati	Texnologik investitsiyalarni oqilona moliyalashtirish	Uzoq muddatli barqarorlikni kuchaytiradi

Jadvaldan ko'rinadiki, OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligi faqat buxgalteriya ko'rsatkichlari yig'indisi emas. U media korxonasining auditoriya bilan ishlash sifati, texnologik moslashuvchanligi, monetizatsiya kanallari va boshqaruv qarorlarining aniqligi bilan chambarchas bog'liq.

Raqamli platformalar OAV korxonalarida uchun ikki tomonlama ta'sirga ega. Bir tomondan, ular auditoriyaga tez va keng ko'lamda chiqish imkonini beradi. Ikkinchi tomondan, platforma algoritmlariga qaramlik, reklama daromadlarining notekis taqsimlanishi va foydalanuvchi ma'lumotlariga cheklangan egalik moliyaviy barqarorlikka xavf tug'diradi. Shu bois OAV korxonasi faqat tashqi platformalarga tayanmasdan, o'z veb-sayti, mobil



ilovasi, elektron obuna bazasi va bevosita auditoriya ma'lumotlar bazasini rivojlantirishi zarur.

Nazariy jihatdan OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda uch asosiy yondashuvni ajratish mumkin: resursga asoslangan yondashuv, bozor yondashuvi va institutsional yondashuv. Resursga asoslangan yondashuvda moliyaviy barqarorlik korxonaning ichki resurslari — malakali kadrlar, brend obro'si, texnologik infratuzilma va kontent sifati bilan izohlanadi. Bozor yondashuvi esa auditoriya talabi, reklama bozori, raqobatchilar va platformalar ta'sirini markazga qo'yadi. Institutsional yondashuvda esa qonunchilik, davlat siyosati, axborot xavfsizligi va media erkinligi kabi tashqi omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval.

OAV korxonalarining raqamli biznes modellari va moliyaviy barqarorlikka ta'siri

Biznes model	Asosiy daromad manbai	Ustun jihati	Moliyaviy risk
Reklamaga asoslangan model	Raqamli reklama, banner, target reklama	Auditoriya qamrovi keng bo'lsa, tez daromad beradi	Reklama bozori tebranishiga qaramlik
Obuna modeli	Pullik kontent, premium maqolalar	Doimiy pul oqimini shakllantiradi	Auditoriya to'lovga tayyor bo'lmasa, samara past bo'ladi
Platformaviy model	YouTube, ijtimoiy tarmoqlar, OTT xizmatlar	Keng auditoriyaga chiqish imkoniyati	Algoritm va platforma siyosatiga qaramlik
Diversifikatsiyalangan model	Reklama, obuna, maxsus loyiha, xizmatlar	Moliyaviy barqarorlikni kuchaytiradi	Boshqaruv murakkabligi ortadi
Ma'lumotlarga asoslangan model	Auditoriya tahlili, marketing xizmatlari	Qaror qabul qilish aniqligini oshiradi	Maxfiylik va kiberxavfsizlik risklari mavjud

Amaliy jihatdan OAV korxonasi uchun eng maqbul yo'l — diversifikatsiyalangan biznes modelni shakllantirishdir. Bunday modelda reklama muhim daromad manbai bo'lib qoladi, biroq u yagona tayanch sifatida emas, balki obuna, kontent xizmatlari, hamkorlik loyihalari va raqamli mahsulotlar bilan uyg'un holda ishlaydi. Bu yondashuv media korxonasining moliyaviy mustaqilligini mustahkamlaydi va tahririyat siyosatining barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

OAV korxonalarini uchun moliyaviy barqarorlikning yana bir nazariy asosi tahririyat qiymati va iqtisodiy qiymat o'rtasidagi muvozanatdir. Media korxonasi daromad olishga intilar ekan, axborot sifati, xolislik, ishonchlik va ijtimoiy mas'uliyat tamoyillarini chetga surmasligi lozim. Aks holda, qisqa muddatli moliyaviy foyda auditoriya ishonchining pasayishi hisobiga uzoq muddatli barqarorlikka zarar yetkazishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligi iqtisodiy, texnologik va ijtimoiy omillar uyg'unligida shakllanadi. Moliyaviy jihatdan barqaror media korxonasi daromad manbalarini diversifikatsiya qiladi, xarajatlarni oqilona boshqaradi, pul oqimlarini rejalashtiradi, auditoriya ishonchini saqlaydi va raqamli texnologiyalardan strategik foydalanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida ommaviy axborot vositalari korxonalarining moliyaviy barqarorligi ko'p omilli va murakkab iqtisodiy kategoriya sifatida namoyon bo'ladi. U faqat foyda yoki reklama tushumlari bilan emas, balki likvidlik, rentabellik, pul oqimlari, daromadlar diversifikatsiyasi, texnologik moslashuvchanlik va auditoriya ishonchi bilan ham belgilanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, OAV korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun an'anaviy reklama modelidan bosqichma-bosqich ko'p



kanalli raqamli monetizatsiya modeliga o'tish zarur. Bunda obuna xizmatlari, pullik tahliliy kontent, video va audio mahsulotlar, maxsus media loyihalar hamda ma'lumotlar asosida marketing xizmatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, OAV korxonalarida moliyaviy rejalashtirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish, raqamli analitika vositalaridan foydalanish, xarajatlar samaradorligini baholash va investitsion qarorlarni ilmiy asosda qabul qilish lozim. Media korxonalarining texnologik modernizatsiyasi xarajat sifatida emas, balki uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikka xizmat qiluvchi investitsiya sifatida baholanishi kerak.

Nazariy jihatdan OAV korxonalarini moliyaviy barqarorligini ta'minlashda quyidagi yo'nalishlar ustuvor hisoblanadi: daromad manbalarini diversifikatsiya qilish; auditoriya bilan bevosita raqamli aloqani kuchaytirish; platformalarga qaramlikni kamaytirish; pul oqimlarini rejalashtirish; moliyaviy dashboard va analitika tizimlarini joriy etish; tahririyat sifati va iqtisodiy manfaatlar o'rtasida muvozanatni saqlash.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot OAV korxonalarini uchun nafaqat texnologik yangilanish, balki moliyaviy boshqaruvni qayta tashkil etish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda. Shu bois media korxonalarining kelgusidagi barqaror rivojlanishi ularning raqamli biznes modelni to'g'ri tanlashi, moliyaviy risklarni boshqarishi va auditoriya ishonchini iqtisodiy barqarorlikning muhim resursi sifatida baholashiga bog'liq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. Tapscott D. The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence. — New York: McGraw-Hill, 2019.
3. Picard R. G. Media Economics: Concepts and Issues. — London: Sage Publications, 2018.
4. Albarran A. B. Media Economics: Understanding Markets, Industries and Concepts. — Ames: Iowa State University Press, 2017.
5. Damodaran A. Applied Corporate Finance. — New York: Wiley, 2014.
6. Kaplan R. S., Norton D. P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. — Boston: Harvard Business School Press, 1996.
7. OECD. Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future. — Paris: OECD Publishing, 2019.
8. World Bank. World Development Report 2021: Data for Better Lives. — Washington, DC: World Bank, 2021.
9. PwC. Global Entertainment & Media Outlook 2024–2028. — New York: PwC, 2024.
10. Reuters Institute for the Study of Journalism. Digital News Report 2024. — Oxford: University of Oxford, 2024.
11. UNESCO. World Trends in Freedom of Expression and Media Development. — Paris: UNESCO Publishing, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>